

KIMYO 8-SINF 11-15&

	SAVOL	JAVOB
1	Bitta qatordan tashkil topgan davrlar nima deb ataladi?	Kichik davrlar
2	Pog'onadagi elektronlar soni qaysi formula yordamida topiladi?	$N = 2n^2$
3	Davriy sistemada katta davrlar nechta qatordan iborat?	2 ta
4	Katta davrlarning juft qatorlarida joylashgan elementlar nima deb ataladi?	Metallar
5	Davrlarda chapdan o'ngga tomon qaysi xossalar ortib boradi?	Metallmaslik, tashqi elektron pog'onasida elektronlar soni, elektronning yadroga tortilishi, elektromanfiyligi, kislorodga nisbatan valentligi 1 dan 8 ga qadar ortib boradi
6	Davrlarda chapdan o'ngga tomon qaysi xossalar kamayib boradi?	Atom radiusi, metallik, vodorodga nisbatan valentligi 4 dan 1 ga qadar kamayib boradi
7	Guruhlarda yuqoridan pastga tomon qaysi xossalar ortib boradi?	Atom radiusi, elektron qavatlar soni, metallik,
8	Guruhlarda yuqoridan pastga tomon qaysi xossalar kamayib boradi?	Elektronning yadroga tortilishi, metallmaslik, elektromanfiylik
9	Guruhlarda yuqoridan pastga tomon qaysi xossa o'zgarmaydi?	Tashqi elektron qavatidagi elektronlar soni
10	Ekaaluminium (galliy)ni kim kashf etgan?	1875- yilda fransuz olimi Lekok de Buabodran
11	Ekabor (skandiy)ni kim kashf etgan?	1879- yilda skandinav olimi Nilson
12	Ekasilitsiy (germaniy)ni kim kashf etgan?	1886- yilda nemis olimi K.Vinkler
13	Reniy elementi kimlar tomonidan kashf qilingan?	Er-xotin V.Noddak va I.Noddak
14	Mishyakka xos bo'lgan fizik xususiyatlarni aniqlang	Kumushsimon yaltiroq, elektr tokini va issiqlikni o'tkazadi, mo'rt hamda bolg'alanmaydi
15	Kimyoviy element atomlarining kimyoviy bog'lanishda ishtirok etayotgan umumiy juft elektronlarni o'ziga tortish xossasiga nima deyiladi?	Elektromanfiylik
16	Elektromanfiyliklari bir xil bo'lgan elementlardan, ya'ni ayni bir xil element atomlaridan hosil bo'lgan moddalarda bog'lanishning qanday turi mavjud?	Qutbsiz kovalent bog'lanish
17	Elektromanfiyligi bir-biridan biroz farq qiladigan element atomlaridan hosil bo'lgan moddalarda bog'lanishning qanday turi mavjud?	Qutbli kovalent bog'lanish
18	Elektromanfiyligi bir-biridan keskin farq qiladigan element atomlaridan hosil bo'lgan moddalarda bog'lanishning qanday turi mavjud?	Ion bog'lanish
19	Atomlarning umumiy elektron juftlari vositasida bog'lanishi nima deb ataladi?	Kovalent bog'lanish
20	Bir atomning kimyoviy bog'lanishda ishtirok etmagan, ya'ni taqsimlanmagan elektron jufti va ikkinchi atomning bo'sh orbitali o'rtasida hosil bo'lgan bog'lanish nima deb ataladi?	Donor-akseptor yoki koordinatsion bog'lanish